



6. <https://cyberleninka.ru/>

UDK: 37.013.7

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK SHAKL TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI VA BOSQICHLARI

Inoyatov Shukurillo Turg’unboyevich
Namangan davlat pedagogika instituti, dotsenti
Ergasheva Xulkaroy Shukurillo qizi
Urganch davlat pedagogika instituti, magistrant
Email: shinoyatov77@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf matematika ta’limida geometrik shakllar haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirishning samarali usullari va bosqichlari tahlil qilingan. O‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish, shakllarni amaliy faoliyat orqali anglash, ularning xossalari solishtirish va umumlashtirish asosida bilimlarni mustahkamlashning metodik yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: geometrik shakl, fazoviy tasavvur, boshlang‘ich ta’lim, metodika, ko‘rgazmalilik, amaliy faoliyat, STEM yondashuv.

МЕТОДЫ И ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ФИГУРАХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Иноятлов Шукурилло Тургунбоевич
Наманганский государственный педагогический институт, доцент
Эргашева Хулкарой Шукурилло кизи
Ургенчский государственный педагогический институт, магистрант
Email: shinoyatov77@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются эффективные методы и этапы формирования начальных представлений о геометрических фигурах в начальном математическом образовании. Выделены методические приемы закрепления знаний, основанные на развитии пространственного воображения учащихся, понимании фигур через практическую деятельность, сравнении и обобщении их свойств.

Ключевые слова: геометрическая фигура, пространственное воображение, начальное образование, методика, демонстрация, практическая деятельность, STEM-подход.

METHODS AND STAGES OF FORMING THE CONCEPT OF GEOMETRIC SHAPES IN PRIMARY GRADES

Inoyatov Shukurillo Turgunboyevich
Namangan State Pedagogical Institute, associate professor
Ergasheva Khulkaroy Shukurillo qizi
Urgench State Pedagogical Institute, master's student
Email: shinoyatov77@gmail.com

Annotation: This article analyzes effective methods and stages of forming initial concepts of geometric shapes in primary mathematics education. Methodological ways of consolidating knowledge based on developing spatial imagination in students, understanding shapes through practical activities, comparing and generalizing their properties are highlighted.

Keywords: geometric shape, spatial imagination, primary education, methodology, demonstration, practical activities, STEM approach.

Kirish



Boshlang‘ich ta’limda matematika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri – bu o‘quvchilarda geometrik tasavvurlarni shakllantirishdir. Geometriya o‘quvchilarning fazoviy fikrlashini, kuzatuvchanligini, mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Ayniqsa, geometrik shakllarni o‘rganish jarayoni orqali bolalarda atrof-muhitdagi buyumlar shaklini anglash, ularni tahlil qilish va taqqoslash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf darslarida geometrik shakllar haqidagi tushunchalarni shakllantirish bosqichma-bosqich olib borilishi zarur. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilar tafakkuri ko‘proq vizual, konkret tasvirlarga asoslanadi. Shuning uchun ham dars jarayonida ko‘rgazmali qurollar, modellar, shakllar bilan ishlash, konstruktorlar va didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.[1]

Bugungi kunda ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf matematika kursining mazmuni o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, kuzatish, tahlil qilish va umimlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ayniqsa, **geometrik shakllar** haqidagi tushunchalarni o‘rgatish — bolalarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish, atrof-muhitdagi jismlarni shakli, hajmi, joylashuvi bo‘yicha tahlil qilish, taqqoslash hamda ularning o‘zaro munosabatlarini anglash ko‘nikmasini hosil qilishda muhim o‘rin tutadi.[2]

Boshlang‘ich sinflarda geometrik shakllar haqidagi bilimlarni shakllantirish jarayoni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, psixologik tayyorgarligiga va bilish faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishiga asoslanadi. Chunki bu davrda bolalarning tafakkuri ko‘proq ko‘rgazmalilik va amaliy faoliyat orqali rivojlanadi. Shuning uchun o‘qituvchi dars jarayonida turli shakllardagi predmetlardan, modellar, rasm, konstruktiv o‘yinlar, hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishi, o‘quvchilarda geometrik tasavvurlarni amaliy tajriba asosida shakllantirishi zarur. Geometrik shakllar haqidagi dastlabki tushunchalar bolalarda tevarak-atrofnı kuzatish, jismlarning shaklini farqlash, ularni nomlash, solishtirish va yasash jarayonida vujudga keladi. Shu bois, o‘qituvchi o‘quvchilarning idrok, diqqat, xotira va tafakkur faoliyatini faollashtiruvchi metodlardan foydalanishi lozim. Masalan, “shaklnı top”, “nima o‘zgardi?”, “qaysi jismga o‘xshaydi?” kabi o‘yin va mashqlar orqali o‘quvchi nafaqat shaklnı tanib oladi, balki uni so‘z bilan ifodalashni ham o‘rganadi.[3] Boshlang‘ich ta’limda geometrik shakllar haqida bilim berishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda geometrik figuralarnı idrok etish, ularning elementlarini (tomon, burchak, cho‘qqi) ajrata olish, shakllarnı chizish, yasash va ularni atrofıdagi predmetlar bilan bog‘lash orqali fazoviy tasavvurnı shakllantirishdan iborat. Bu jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi: tanishuv, mustahkamlash va amaliy qo‘llash bosqichlari. Har bir bosqichda o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalari tizimli ravishda rivojlanib boradi.[4] Boshlang‘ich sinflarda geometrik shakl tushunchasini shakllantirish — bu nafaqat matematika ta’limining muhim tarkibiy qismi, balki bolalarda fazoviy fikrlash, tasavvur, tahlil va ijodiy tafakkurnı rivojlantirishning poydevoridir.[5] Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda zamonaviy ta’lim vositalaridan oqilona foydalanishi zarur.

Asosiy qism

Boshlang‘ich sinflarda geometrik tushunchalarnı o‘rgatishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda atrofıdagi jismlarning shakllari, o‘lchamlari va joylashuviga doir tasavvurlarnı rivojlantirishdir. Bu jarayon orqali bolalar “doira”, “kvadrat”, “uchburchak”, “to‘g‘ri to‘rtburchak”, “silindr”, “shar” kabi shakllarnı ajrata olishni o‘rganadilar. Boshlang‘ich sinflarda geometrik shakllar haqida dastlabki tushunchalarnı shakllantirishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda atrof-muhitdagi jismlarning shakli, hajmi va joylashuvini idrok etish, ularni tahlil qilish, taqqoslash va umimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.[6] Geometrik shakllarnı o‘rgatish orqali bola nafaqat matematik bilimlarnı o‘zlashtiradi, balki ularning mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvur va ijodiy tafakkur qobiliyatlari ham kengayadi.

Bu jarayonning maqsadi bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. **Kuzatish va idrokni rivojlantirish:** O‘quvchilar tevarak-atrofdagi buyumlar shakliga e‘tibor berib, ularni geometrik nuqtayi nazardan ko‘rish, farqlash va tahlil qilishni o‘rganadilar. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga “stol usti qaysi shaklga o‘xshaydi?”, “soat siferblati qanday shaklda?” kabi savollarnı berib, ularning kuzatuvchanligini oshiradi. Bu orqali bola geometrik shaklnı real hayotdagi predmetlar bilan bog‘lay boshlaydi.
2. **Tushuncha va terminlarnı shakllantirish:** Geometrik shakllarnı o‘rganish jarayonida bolalar “nuqta”, “to‘g‘ri chiziq”, “burchak”, “uchburchak”, “to‘rtburchak”, “aylana”, “doira” kabi asosiy geometrik atamalar bilan tanishadi. Ushbu terminlarnı to‘g‘ri ishlatish, ularni ifodalash va chizish orqali o‘quvchi matematik nutqni shakllantirishga o‘rganadi.



3. **Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish:** Geometrik shakllarni solishtirish, o‘xshash va farqli belgilarini aniqlash, shakllarni turlarga ajratish, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish jarayonida o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Bu esa keyingi bosqichlarda algebraik va matematik tahlil ko‘nikmalarining shakllanishiga poydevor yaratadi.

4. **Amaliy faoliyatni rivojlantirish:** Geometrik shakllarni yasash, kesish, birlashtirish, katakli qog‘ozda chizish, turli modellarni yasash kabi mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning qo‘l mehnati, aniqlik va diqqat ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu amaliy mashg‘ulotlar bolalarda mustaqil fikrlash, sinchkovlik, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

5. **Fazoviy tasavvurni rivojlantirish:** Geometrik shakllar orqali o‘quvchilar jismlarning shakli, o‘lchami va joylashuvini fazoda tasavvur qilishni o‘rganadilar. Bu ko‘nikma matematika fanining boshqa bo‘limlarini, shuningdek, fizika, chizmachilik, texnologiya kabi fanlarni o‘rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

6. **O‘quvchilarda estetik va amaliy dunyoqarashni shakllantirish:** Geometrik shakllarni o‘rganish jarayonida bolalar atrofda predmetlarning go‘zalligini, simmetriyasini, muvozanatini his etadilar. Bu esa ularning estetik didini, tabiat va inson mehnatiga nisbatan hurmatini oshiradi.[7,9]

Umuman olganda, geometrik shakllar haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirishning maqsadi — o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirish, ularni amaliy va nazariy jihatdan o‘ylashga undash, fazoviy tafakkurni rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni kengaytirish va hayotiy kuzatuvlarni ilmiy tushunchalar bilan bog‘lay olish malakasini hosil qilishdan iboratdir.[8]

Kuzatish va tanishish bosqichi.

Bu bosqichda o‘quvchilar atrofda predmetlarning shakllarini kuzatish, ularni solishtirish, farqlash orqali dastlabki tasavvurga ega bo‘ladilar. Masalan, “Bu shakl yumaloq, bu esa burchakli”, “Bu stol yuzasi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida” kabi kuzatishlar orqali umumiy xususiyatlar aniqlanadi.[3,5,8]

Tajribaning maqsadi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida geometrik shakllar (uchburchak, to‘rtburchak, aylana, to‘g‘ri chiziq) haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirishda kuzatish va tanishish bosqichining samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti 3-sinf o‘quvchilari (har biri 25 nafardan iborat ikki guruh):

- Tajriba guruhi (TG) — darslar yangi metod asosida, ya’ni kuzatish va ko‘rgazmalilik asosida tashkil etildi.
- Nazorat guruhi (NG) — an’anaviy dars o‘qitish usuli asosida o‘qitildi.

Tadqiqot metodlari

- Kuzatish, suhbat, test topshiriqlari, amaliy mashg‘ulotlar, chizma tahlil.
- O‘quvchilarning geometrik shakllarni tanish, nomlash, chizish va taqqoslash ko‘nikmalari baholandi.

Sinov bosqichlari va mazmuni

№	Bosqich nomi	Faoliyat mazmuni	O‘qituvchi harakati	O‘quvchi faoliyati
1	Kuzatish	Atrofdagi predmetlarning shaklini kuzatish (masalan, deraza — to‘rtburchak, soat — aylana).	Savollar beradi, ko‘rgazmali vositalarni namoyish etadi.	Jismlarni tahlil qiladi, ularning shaklini aniqlaydi.
2	Tanishish	Geometrik shakllar modellarini ko‘rsatish (uchburchak, to‘rtburchak, aylana).	Modellarni tushuntiradi, o‘xshash va farqli belgilarni aytadi.	Shakllarni nomlaydi, taqqoslaydi.
3	Mustahkamlash	Chizish va yasash mashqlari (katakli qog‘ozda shakllar chizish).	To‘g‘ri chiziq, burchak va tomonlarni ko‘rsatadi.	Mustaqil chizadi va xatolarini tuzatadi.

Tajriba-sinov ishlari 2025–2026 o‘quv yili davomida **Namangan viloyati, Norin tumani 1-sonli umumta’lim maktabining 2-“A” va 2-“B” sinflarida** o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida 2-“A” sinf **tajriba guruhi**, 2-“B” sinf esa **nazorat guruhi** sifatida tanlandi. Har ikkala sinfdagi o‘quvchilarning soni deyarli teng — 25 nafardan iborat bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin o‘quvchilarning geometrik shakllar haqidagi dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalari diagnostik test yordamida aniqlab olindi. Shundan so‘ng, tajriba guruhi bilan o‘quv jarayonida interfaol metodlar (masalan, “Kuzat va top”,



“Shaklni yasaymiz”, “Ranglar olami”, “Taqqosla va nomla”, “Matematik konstruksiya”) asosida mashg’ulotlar o’tkazildi.

O’quv jarayonini samarali tashkil etish uchun ko’rgazmali materiallar, multimedia vositalari, didaktik o’yinlar va taqdimotlardan foydalanildi. Har bir mashg’ulot yakunida o’quvchilarning mustaqil ishlari, jamoaviy baholash usullari va o’zaro tahlil metodlari orqali natijalar qayd etildi. Natijada, tajriba guruhi o’quvchilari geometrik shakllarni tanish, tasniflash va yasash bo’yicha yuqori natijalarga erishganligi kuzatildi.

Tajriba natijalari (foizlarda ifodalangan).

Dastlabki (sinovdan oldin) va yakuniy (sinovdan so’ng) ko’rsatkichlar:

№	Ko’rsatkichlar	Nazorat guruhi (NG)	Tajriba guruhi (TG)
1	Geometrik shaklni tanish (to’g’ri nomlash)	58 % → 72 %	60 % → 92 %
2	Shakl elementlarini (tomon, burchak) ajratish	46 % → 68 %	48 % → 88 %
3	Shakllarni solishtirish va taqqoslash	50 % → 70 %	52 % → 90 %
4	Chizma asosida shakl yasash	42 % → 64 %	45 % → 85 %

Yuqoridagi jadval asosida grafikni chizamiz



Yuqoridagi jadval asosida chizilgan grafik. U tajriba va nazorat guruhlarining boshlang’ich va yakuniy natijalarini taqqoslaydi. Grafikdan ko’rinib turibdiki, tajriba guruhida o’quvchilarning geometrik shakllarni anglash va ishlatish darajasi sezilarli oshgan.



Mana, yuqoridagi jadval asosida chizilgan chiziqli (line) grafik — u har bir ko’rsatkich bo’yicha nazorat va tajriba guruhlarining o’sish dinamikasini aniq ko’rsatadi.

Erishilgan natija

O’qituvchi o’quvchilarning bilish faoliyatini boshqaruvchi, yo’naltiruvchi va rag’batlantiruvchi shaxs sifatida darsni samarali tashkil etishi kerak. U har bir o’quvchining yosh va individual xususiyatini inobatga olgan holda, dars jarayonini interfaol metodlar bilan boyitishi lozim. Boshlang’ich sinflarda geometrik shakllar haqidagi tushunchalarni shakllantirish jarayonida o’qituvchining roli beqiyosdir. Chunki aynan o’qituvchi o’quvchilarning bilish faoliyatini yo’naltiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga undovchi, kuzatish, tahlil qilish va umumlashtirish ko’nikmalarini shakllantiruvchi shaxs hisoblanadi.[1,2] Geometrik shakllar mavzusi o’quvchilarga abstrakt tushunchalarni konkret misollar orqali tushuntirishni talab etgani bois, o’qituvchining mahorati, metodik yondashuvi va darsni tashkil etish uslubi bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O’qituvchi o’quvchilarda geometrik shakllar haqida bilim hosil qilishda bir qator pedagogik va psixologik tamoyillarga amal qilishi zarur. Quyida o’qituvchining asosiy vazifalari va roli kengroq yoritiladi jumladan, Bilimlarni tizimli va izchil shakllantirish uchun o’qituvchi geometrik shakllar haqidagi tushunchalarni oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich o’rgatishi lozim. Dastlab real predmetlar asosida shakllarni tanitish, so’ngra ularni geometrik model shaklida chizish va nomlash orqali bilimlar tizimini izchil mustahkamlab boradi. Ko’rgazmalilik va amaliy faoliyatni ta’minlashda boshlang’ich sinf o’quvchilari asosan tasviriy fikrlash darajasida bo’lgani sababli, o’qituvchi dars



jarayonida ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanadi: geometrik shakllar modellarini, rasm va chizmalarni, rangli kartonlardan tayyorlangan figuralarni, shuningdek, multimedia vositalarini qo‘llaydi.[3,5,6] Bu o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb etadi. o‘quvchilarda fazoviy tafakkurni rivojlantirish maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilarga shakllarning joylashuvini, o‘lchamlarini, ularning fazodagi holatini tahlil qilishni o‘rgatadi. Masalan, “uchburchakni aylantirsak nima o‘zgaradi?”, “to‘rtburchakning diagonal qayerda joylashgan?” kabi savollar orqali bolalarning fazoviy tasavvuri va mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. Interfaol metodlardan foydalanish yordamida Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqaruvchi shaxsdir.[7] Shuning uchun u “Aqliy hujum”, “Topib yoz”, “Tushunchalar zanjiri”, “Juftlikda ishlash”, “Shaklni top” kabi interfaol metodlardan foydalanib, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, muloqot qilishga va ijodkorlikka undaydi. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish har bir bola turlicha idrok etadi, turlicha fikrlaydi. O‘qituvchi bu holatni inobatga olib, differensial yondashuv asosida ish olib borishi kerak. Kimdir chizish orqali, kimdir og‘zaki tushuntirish orqali, boshqasi esa amaliy mashg‘ulotlar orqali yaxshiroq o‘rganadi. O‘qituvchi bu farqlarni hisobga olib, har bir o‘quvchining imkoniyatiga mos topshiriqlar beradi. Matematik nutqni rivojlantirish geometrik shakllar haqida so‘zlash jarayonida o‘quvchilar geometrik terminlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, tushunchalarni izchil bayon etish, mantiqiy fikrni ifodalashni o‘rganadilar. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantiruvchi asosiy yo‘lboshchi sifatida chiqadi. Motivatsiyani oshirish va ijobiy muhit yaratishda o‘qituvchi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini doimiy qo‘llab-quvvatlashi, ularni rag‘batlantirib borishi zarur. Dars jarayonida ijodiy muhit, o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillari ustuvor bo‘lishi kerak. O‘quvchi xatolardan qo‘rqmasdan fikr bildirishga, o‘z kuzatuvlarini baham ko‘rishga o‘rganadi.[8] Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda geometrik shakllarni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi — bu bilim beruvchi emas, balki yo‘lboshchi, tashkilotchi va motivatoridir. U o‘quvchini fikrlashga, kuzatishga, tahlil qilishga va o‘z xulosasini chiqarishga o‘rgatadi. Shu orqali o‘quvchilarda nafaqat geometrik shakllar haqidagi bilimlar, balki mustaqil o‘ylash, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari shakllanadi.[9]

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda geometrik shakllar haqidagi tushunchalarni shakllantirish — bu nafaqat matematik bilim asoslarini yaratish, balki o‘quvchilarda fazoviy tafakkur, tahlil qilish, taqqoslash va mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayonni bosqichma-bosqich, ko‘rgazmali, amaliy va ijodiy faoliyat asosida olib borish o‘quvchilarning geometrik tafakkurini rivojlantirishda yuqori samara beradi. O‘tkazilgan kuzatish va tanishish bosqichi tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida geometrik shakllar haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirishda interfaol metodlar, kuzatish va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan yondashuv yuqori samaradorlik beradi. Tajriba guruhi va nazorat guruhi natijalarining taqqoslanishi (grafiklarda aks etganidek) o‘quvchilarning bilim darajasida sezilarli farq borligini isbotladi. Jumladan: Tajriba guruhi o‘quvchilarida geometrik shakllarni tanish, ajratish va yasash ko‘nikmalari 30–40% gacha oshgan, Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha 10–15% atrofida bo‘lgan. Bu esa o‘qituvchining dars jarayonida ko‘rgazmali vositalardan samarali foydalanishi, amaliy faoliyatni tashkil etishi **ba** o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishi natijasida erishilgan yutuqlardir. Kuzatish bosqichi yakunida aniqlanishicha, tajriba guruhi o‘quvchilari geometrik shakllarni:

- Atrofdagi buyumlar bilan bog‘lay olishgan;
- Shakllarning elementlarini farqlay olishgan;
- Mustaqil ravishda yangi shakllar yasay olishgan;
- Shakllarni taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini egallashgan.

Shunday qilib, tajriba natijalari boshlang‘ich sinflarda geometrik shakllar haqida tushuncha hosil qilishda kuzatish, tajriba, didaktik o‘yin va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi hamda matematik tafakkur asoslarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova R., Jo‘rayev N. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.



2. Xoliqova M. “Boshlang‘ich ta’limda matematika darslarini innovatsion tashkil etish”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Mavlonova R. “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. “STEM Education Guide”. – Washington, 2020.
5. Шадрин И. В. «Методика обучения геометрии в начальной школе». — Просвещение, 2015.
6. Джаббаров Н. А. «Методы формирования геометрических знаний у младших школьников». — 2018.
7. Воторникова А. С. «Методические приёмы изучения элементов геометрии в начальной школе (1-4 кл.)». — 2019.
8. Квардицкая И. О. «Особенности формирования геометрических понятий у младших школьников согласно требованиям ФГОС НОО». — 2022.
9. Дубина Д. «Формирование геометрических понятий у детей младшего школьного возраста». — 2017.

ELNING SUYUKLI FARZANDI

Adashaliyeva Oygul Oybek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
“Fizika” yo‘nalishi birinchi bosqich talabasi.

Telefon nomer: +998770668480

E-mail: adashaliyevaoygul@gmail.com

Ilmiy raxbar: Pozilova Muqaddas Xikmataliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalqining buyuk farzandi, sarkarda, davlat arbobi shoir va olim Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ijodi va faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Unda Boburning yoshligidan boshlab Farg‘ona taxtiga chiqishi, Movarounnahr va Afg‘onistonda olib borgan siyosiy kurashlari, Hindistonda Boburiylar imperiyasi barpo etishdagi xizmatlari yoritilgan.

Maqolada Boburning “Boburnoma” asari alohida tahlil qilinadi-bu asar nafaqat tarixiy manba balki o‘zbek adabiyoti durdonalaridan biri sifatida baholanadi. Unda Boburning o‘z hayoti, xalqi, siyosiy voqealari aks etgan. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning o‘z davrida amalga oshirgan ishlari va bugungi kunda yoshlar uchun ibratli shaxs sifatidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, o‘zbek adabiyoti, davlat arbobi, sarkarda, shoir, ilm-fan, madaniyat, yoshlar uchun ibrat, tarixiy meros.

ЛЮБИМЫЙ СЫН НАРОДА

Аннотация: В статье рассказывается о жизни, творчестве и деятельности великого сына узбекского народа - полководца, государственного деятеля, поэта и учёного Захириддина Мухаммада Бабура. С ранних лет Бакур проявлял интерес к науке, литературе и государственному управлению.

Особое внимание в статье уделено произведению Бабура “Бакур-наме” - это не только исторический источник, но и одно из жемчужин узбекской литературы. В нём отражены жизнь Бабура, судьба народа и политические события его времени. В статье раскрывается роль Захириддина Мухаммада Бабура как выдающейся личности своего времени и его значение как примера для молодёжи современности.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бакур, Бакур-наме, узбекская литература, государственный деятель, полководец, поэт, наука, культура, пример для молодёжи, историческое наследие.

A BELOVED SON OF THE NATION

Abstract: The article discusses the life, creative work, and activities of Zahiriddin Muhammad Babur - the great son of the Uzbek nation, a commander, statesman, poet, and scholar. From an early age, Babur